ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 4,1

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.10.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.10.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.10.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

DARVISHOV IBROHIM
Shevalardagi ayrim fonetik-fonologik belgilar
(Janubi-g‘arbiy Namangan qipchoq shevalari misolida) 7

ПАНЖИЕВА НАСИБА НАРМАХМАТОВНА
Теория концептуальной интеграции как
инструмент анализа стилистических приёмов 10

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH,
QO‘CHQORALIYEVA FOTIMA ZOKIRJON QIZI
Til kontakti va so‘z o‘zlashuvi muammolari 13

BEGMATOVA GULCHEHRA
«Qush» semantik komponentli idiomalar tadqiqiga doir kuzatishlar 16

QAZAQOVA NOZIMA ABDULBOQIYEVNA,
HAMRAYEVA YORQINOY NABIJANOVNA
Matn kommunikativ-pragmatik tahlilining asosiy tamoyillari 19

SHAMSUDINOVA IKHBOL
Yordamchi so‘zlar bazasini yaratishda reprezentativlikning ahamiyati 23

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Nutqda paremiyalarga xos milliy-madaniy konseptlarning ifodalanishi 27

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ
Теоретические аспекты соотношения фрейма и концепта 31

KULTAYEVA FAZILAT
Hududiy ergonimlarning leksik-semantik tabiati 34

RAXMANOV BOTIR ABDURASULOVICH
Surxondaryo dialektal- etnografik leksikasida turli din va madaniyat belgilari 38

QODIROVA MUKADDAS TOG‘AYEVNA
Biznes diskursini sinergetik yondashuvda o‘rganish masalasi 41

RAHIMOVA ZEBINISO SHOMANSUR QIZI
Jargonlar haqida ba’zi mulohazalar 45

ЗАРИПОВА МАТЛУБА КУЛФИДИНОВНА
Тенденции негативной оценки в узбекских и русских пословицах 48

TURDALIYEV OLIMJON FAYZULLAJON O‘G‘LI
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» asarida qo‘shma fe’llarning berilishi 52

FARMONOVA UMIDA MAXSUTALIYEVNA
«Qisasi Rabg‘uziy» asarida qo‘llangan frazemalarning lingvostatistik
tahlili va keyingi davr tiliga munosabati 55

XASANOVA KAMILA BAXTIYOROVNA
Etnografik leksika va stereotiplar 58

DARVISHALIYEVA MAHLIYO RUSTAMALI QIZI
Mahmud Koshg‘ariy davri turkiy til va hozirgi Namangan
qipchoq shevalari fonetik xususiyatlari 61

МУНДАРИЖА

USMONALIYEV SHAHBOZ
O‘zbek tilshunosligida teonimlarning tadqiqi: muammolar va yechimlar 64

MAMIROVA XAYRINISO KOMILJON QIZI
Birinchi tilni o‘zlashtirishga oid nazariyalar 66

XOLMURODOVA SUMBULA NORMO‘MIN QIZI
Tog‘ay Murod asarlari asosida mualliflik korpusini yaratish asoslari va bosqichlari..... 70

IBRAGIMOV YULDASH MATKARIMOVICH
Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari leksikasi tadqiqi masalasi 72

ADABIYOTSHUNOSLIK

РЎЗИҚУЛ МУСТАФОҚУЛОВ,
НАФОСАТ САЙФИДДИНОВА,
Икки дарё оқиб ўтди..... 75

SHUKUROV AHAD
Satrlarga sig‘mas so‘zlarim… 81

АМАНЖОЛОВА ДЖЕММА БОЛАТОВНА,
ШАЙМЕРДЕНОВА НУРСУЛУ ЖАМАЛБЕКОВНА
От устной традиции к цифровому архиву: сохранение и популяризация тюркского эпоса в XXI веке… 83

KARIMOV OBIDJON
Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini..... 87

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Литература как пространство идентичности: диалог русской и узбекской малой прозы в постсоветскую эпоху… 90

ПУЛАТОВА САЙЁРА ЮЛДАШОВНА
Проблемы и достижения в переводе «Улисса» на узбекский язык…..... 93

UMAROV BOBOQAND IKROMOVICH,
Xurshid Davron she’riyatida ijtimoiy iztirob va ruhiy yolg‘izlik 97

KARJAVUV G‘OLIB AZAMAT O‘G‘LI
Muhammad Sharif Gulxaniyning masalchilikdagi badiiy mahorati…..... 100

UMARALIYAVA NAFISA QURBONALI QIZI
Zamon va shaxs ruhiyatining obrazlar orqali akslanishi…..... 104

BERDIBOYEV ULUG‘BEK SOATBOY O‘G‘LI
Tipologik talqin: adabiy tafakkur, poetik idrok, matn stlistikasi munosabati… 107

DUYSENBAYEV OLIMJON ISMAILOVICH
Romanda syujet va xarakter dinamikasi… 109

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

HUDUDIY ERGONIMLARNING LEKSIK-SEMANTIK TABIATI

Kultayeva Fazilat,
Termiz davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Tilshunoslikda antroposentrizm yigirmanchi asrning oxirlaridan boshlab yetakchi o'rinlarni egalladi. Antroposentrik tamoyil degan tushuncha tilshunoslikda paydo bo'ldi. Tabiiyki, onomastik birliklarni ularni ixtiro qiluvchisi bilan o'rganish, dastavval ularning semantik ko'lamiga daxldor xususiyatlarni ochiqlash zaruratini yuzaga keltiradi. Tildagi nominativ birliklarning ma'no tuzilishini o'rganishda tilshunoslikda semantikaning konnotativ jihati tushunchasiga alohida e'tibor qilinadi. V.N.Teliyaning ta'rificha, «konnotatsiya til birliklari semantikasiga uzual yoki okkazional ravishda kiradigan, nutq subyektining borliqni jumlada ifodalashida uning ayni shu borliqqa bo'lgan hissiy baholash va stilistik munosabatini ifodalaydigan hamda shu axborotga ko'ra ekspressiv ahamiyat kasb etadigan mazmuniy mohiyatdir»[1]. Konnotatsiya semantikaning ekspressiv qiymatga ega bo'lgan uzvi sifatida nomlash jarayonlaridagi borliqni baholagan holda idrok etish va aks ettirish mahsuli hisoblanadi. M.A.Mamadaliyeva ham konnotatsiyaning asosiy vazifasi so'zlovchining ifodalanayotgan predmetga subyektiv munosabatini aks ettirish asosida ta'sir etish, ta'sirchanlikni ta'minlash ekanligini alohida ta'kidlaydi[2].

Ergonimlar hosil bo'lishining leksik-semantik usuli, asosan, so'zning ko'chma ma'nosiga asoslanadi. Ularning metaforik onimizatsiya, metonimik onimizatsiya, transonimizatsiya hamda xorij so'zlari bilan ifodalanish orqali hosil bo'lishi aniqlandi.

1. Metonimik onimizatsiya (metonimiya yo'li bilan hosil bo'lgan ergonimlar). Leksik-semantik onimizatsiya ergonimikada eng ko'p qo'llaniladigan usullaridan biri hisoblanadi. Biz ham F.F.Alistanova yo'lini tutib ergonimlar onimizatsiyasini quyidagi guruhlarga ajratdik:

– oddiy;

– ma'no ko'chirish asosida shakllangan (metonimik, metaforik);

– transonimizatsiya.

Oddiy onimizatsiyada nomlangan obyekt to'g'ridan to'g'ri idrok etiladi: *Sovg'alar* sovg'alar do'koni, *Gullar* gullar do'koni. Bu har qanday davlat organi nomi uchun ko'proq mos keladi.

Metonimik onimizatsiya ergonimlarni yaratishda eng ko'p qo'llaniladigan usullaridan biri hisoblanadi. *Metonimiya* yunoncha «qayta nomlash» so'zidan olingan bo'lib, ma'no ko'chimining asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Metonimiyani tegishli obyektlar o'rtasidagi fazoviy, situatsion hodisaga asoslangan, konseptual, semantik, sintagmatik va mantiqiy munosabatlar, so'zlarning ma'nolari bilan aniqlangan voqelik kategoriyalari va uning inson ongida aks etishi: obyektlar, shaxslar, harakatlar, jarayonlar, hodisalar, ijtimoiy institutlar va hodisalar, joy, vaqt, shakl va boshqalar tashkil etadi. Metonimiya nutqni ixchamlashtirishga xizmat qiladi. Unda kognitiv-fikriy (assotsiativ) va lingvistik (so'z yasash, sintaktik) mexanizmlar o'zaro ta'sir o'tkazadi[3].

Metonimiya nom ko'chishi bilan yangi ma'no hosil bo'lishiga olib keluvchi hodisalarning asosiylaridan biri hisoblanadi. Shu sababli bu hodisa ham nom ko'chishi yo'li bilan yangi ma'no hosil bo'lishi haqida gap borgan ishlarning hammasida qayd etiladi. Metonimiya – narsa-predmetlar, belgilar, harakatlar o'rtasidagi aloqadorlikka (bog'liqlikka) ko'ra nom ko'chishidir. Obyektiv borliqdagi ayrim narsa-predmetlar, belgilar, shuningdek, harakatlar o'rtasida ma'lum umumiylik, aloqa (bog'lanish) bo'ladi. Ana shuning ta'sirida biror narsa, belgi yoki harakatning nomi u bilan aloqasi (umumiyligi) bo'lgan boshqa narsa, belgi, harakatni ifodalash uchun ham qo'llanadi, unga ham nom bo'lib ko'chadi[4].

Metonimik ko'chirish asosida yaratilgan nomlar nafaqat pragmatik nuqtayi nazardan samarali bo'ladi, balki obyekt va uning nomi o'rtasidagi aloqadorlikni yaxshiroq ifodalab oladi, jumladan, *Orxideya*

[1] Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. – М., Наука, 1986. – С. 5

[2] Мамадалиева М.А. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг коннотатив аспекти: Филол. фан. ном. диссер. автореферати. – Тошкент, 1998. – 320 б.

[3] Maxmaraimova Sh.T. Hozirgi o'zbek tili. (leksikologiya) / O'quv qo'llanma. – Toshkent: Firdavs-Shox, 2021. – B. 194.

[4] Ҳожиев А., Муҳаммаджонова Г., Бегматов Э., Ғойибов С., Муллаев Т., Миртожиев М. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – 315 б.

gullar do‘koni, *Chudo deti* bolalar kiyimlari do‘koni, *Chanel* kosmetika va parfyumeriya do‘koni, *Fashion* kiyim-kechak do‘koni, *Happy kids* bolalar kiyimlari do‘koni, *Tabletka* dorixonasi, *Clean cut* sartaroshxonasi, *Pharm plus* dorixonasi, *Diamond* zargarlik do‘koni, *Sapfir* zargarlik do‘koni, *Techno goods* elektronika do‘koni, *Vip brend* kelin liboslari saloni, *Malham* xususiy korxonasi, *Avitsenna* xususiy korxonasi, *Quvvat* xususiy dorixonasi, *Ibrat* xususiy korxonasi, *Shifo* xususiy korxonasi, *Apteka vitamin*, *100 gramm* ichimlik do‘koni, *Avitsenna-Surxon* xususiy korxonasi, *Dori-darmon* dorixonasi, *Jayronxona* tibbiy reabilitasiya va fizioterapiya davlat muassasasi, *Istanbul* kiyim do‘koni, *Diet* («Diyeta») *kafe, Sariq bekat* oshxonasi.

Metonimik ko‘chirish yordamida yaratilgan ergonimlar informativ, ya’ni ma’lumot beruvchi hisoblanadi *(Barkamol avlod* bolalar markazi, *Emu exspress* Surxondaryo filiali pochta va kuryerlik xizmatlari, *Nazar* ko‘z klinikasi), chunki bu kabi ergonimlar ishlab chiqaruvchini (*Begzod denta plus* stomatologik klinikasi, *O‘zsuvtaminot* aksiyadorlik jamiyati) yoki iste’molchilarni (*Chudo deti* bolalar kiyimlari do‘koni, *Stroitelniy mir* qurilish mollari do‘koni, *Ona-bola* supermarketi) sotuv obyektlari nomida aks ettirishi mumkin. Biz ham V.N.Nosenkoga yondashib, o‘zbek til ergonimlarini motivatsiyalangan nominatsiyasiga asoslanib adresantga oid va adresatga oid kabi ikki guruhga ajratdik[1].

Adresantga oid ergonimlar korxonaning faoliyat sohasini, taqdim etiladigan xizmatlar shaklini bildiradi. Adresant va adresatga oid ergonimlar bevosita salohiyatga ega ishlab chiqaruvchi tadbirkorga qaratilgan va quyidagi tematik guruhlarga bo‘linadi:

- adresant – kishining kasbi va mavqeyiga ko‘ra nomlanishi: *Muslima Med* klinikasi*, Madina farm* dorixonasi, *Doktor A* klinikasi, *Med house* klinikasi, *Baliqchi orzusi* do‘koni, *Dorixona N1, Medik, Navbatchi, Shifokor, Chegarachi* MChJ;

- **adresat** – **mijozning ijtimoiy mavqeyiga ko‘ra yoki unga lutf ko‘rsatish orqali nom berish**: *Diplomat* restorani, *Aslzoda* go‘zallik saloni, *Erkatoy kids* xususiy bolalar bog‘chasi, *Barkamol avlod* bolalar markazi;

- **adresat – faoliyat mahsuli sifatida ehtimoldagi samaraga ko‘ra nomlash**: *Glamour* go‘zallik saloni, *Gentelman* sartaroshxona, *Sevimli* market;

- **adresant ish vaqtiga ko‘ra nomlash**: *Dorixona/24 soat.*

Mavhum otlar orqali ifodalangan ergonimik nomlar ham shartli munosabatlarning asosida metonimik ko‘chirishga asoslanadi: *Baraka* market, *Orzu* restorani, *Bilim* axborot-kutubxonasi, *Do‘stlik* kafesi.

Nominatsiya jarayonining metonimik usuli eng ommaboplaridan biri hisoblanadi, chunki u nomlangan obyektning tabiati haqidagi ma’lumotlarni yetkazishga imkon beradi[2]. Ba’zan ergonimlar orasidagi metonimik munosabat mahsulotlar va ularni taklif qiladigan obyektlarning semantik evolyutsiyani boshdan kechirishi natijasida vujudga keladi, nominatsiyalar ergonim bo‘lgunga qadar metonimik tarzda shakllangan, jumladan, avtomobillarga yoqilg‘i quyadigan *Mustang* yoqilg‘i shoxobchasining nomi xorijiy avtomobillar semantik evolyutsiyaning mahsuli hisoblanadi. Bunda mustang – yovvoyi ot. Hayvon obrazi, shuningdek, quvvat o‘lchovi ot kuchida mashhur avtomobil markasi *Mustang* uchun timsol bo‘lib xizmat qildi. Keyinchalik ergonim brend nomi sifatida ishlatilgan. Bundan tashqari *Volto* elektrotexnika do‘konining nomi ham xuddi shunday semantik metamorfoz yo‘lidan o‘tgan. Dastavval *Volta* o‘z kashfiyotlari bilan elektr hodisalari aniqlagan italyan fizigining familiyasidir. Keyinchalik bu antroponim *volt* eponimiga aylantirildi, ya’ni elektr kuchlanish o‘lchov birligining nomidir. Do‘konning nomi esa elektrotexnika bilan assotsiativ ravishda bog‘liq bo‘lgan keyingi ma’noni aniq aks ettiradi.

Tahlilga olingan bir qancha ergonimlarda obyektlararo uzviy aloqadorlik kuzatilib, bu holat mahalliy ergonimikaning yana bir lingvomadaniy xususiyatlaridan biri ekani aniqlandi. Jumladan, *Brilliant* kelin liboslari saloni – «siz baxt kechangizda oppoq kelin libosida qimmatbaho toshlarning sarasi ya’ni brilliant kabi bo‘lasiz»; *Xan Sultan* restorani – «Bu yerda sizni shohona taomlar kutmoqda» kabi ma’nolarni oson uqish imkonini beradi. Shuningdek, *Diet kafe* – «parhez taomlar»; *Nazar* ko‘z klinikasi; *Diamond* hamda *Sapfir* zargarlik do‘koni; *Malham* klinikasi, *Chinara*[3] restorani, *Chudo deti* bolalar kiyimlari do‘koni – ushbu ergonimlarni adresat – faoliyat mahsuli sifatida ehtimoldagi samaraga ko‘ra nomlash turiga kiritsa bo‘ladi. Xususan, *Chudo deti* (bolalar kiyimlari do‘koni) yozuvi Termiz shahridagi bolalar uchun mo‘ljallangan o‘zga do‘konlardan farqli (mas., *Happy kids* bolalar kiyimlari do‘koni), yorqin rangli grafemalardan tarkib topganligidan, mahalliy urbonimik manzarada alohida dizayni bilan ajralib turadi. Qayd etish lozimki, mazkur madaniy makonda tarixan rusiy za-

[1] Носенко Н. В. Названия городских объектов Новосибирска: структурно-семантический и коммуникативно-прагматический аспекты: Дисс. … канд. филол. наук. – Новосибирск, 2007. – 218 с.

[2] Алистанова, Ф.Ф. Эргонимы современного русского языка как микросистема: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Махачкала, 2011. – 23 с.

[3] Bu nom boysunlik tadbirkorlar tomonidan berilgan nom bo‘lib, restoran ham ularning ta’sisligida ochilgan. Surxondaryo madaniy makonida azaldan chinor – Boysun madaniyatining ramzi sanalib keladi.

bonlilarning o‘rni alohida ajralib turganidan, inglizcha komponentli onimlardan ko‘ra pragmatik ta’sirchanlikka ega. Binobarin, shahar onomastik ko‘lami olam modelining ma’lum kesimiga oid ma’lumotni tashiydi, unga ko‘ra shahar ergonimik tasviri – madaniyatlar va ularning chatishuviga xos belgilar manzarasi.

Biroq Surxondaryo ergonimikasida metonimik deb qaraluvchi nomlarning barchasida ham ko‘chim kuzatilavermaydi. Ya’ni tadqiqot yuzasidan tahlilga tortilgan ayrim misollarda, garchi metonimik ko‘chim mavjudligi bordek ko‘rinsa-da, aslida ular mashhur savdo yorliqlari, zamonaviy tilda aytilsa, brendlar nomiga qo‘yilgan ergonimlar bo‘lib, amalda metonimik ko‘chimdan xoli bo‘ladi. Xususan, quyidagi misollarni ko‘rib chiqamiz: 1) *Jiguli* MCHJ, 2) *AVTECH computers,* 3) *Daewoo* XK, 4) *Artel* XK, 5) *Samsung* XK, 6) *Turkish Brend Food,* 7) *Osman Foods System,* 8) *Shelby*[1]*,* 9) *Dior,* 10) *Shanel,* 11) *Folsfagen*. Berilgan misollardan 7-, 8-, 9-, 10-, 11-si metonimik ko‘chim asosida yuzaga chiqqan ergonimlardir, jumladan *Osman Foods System* birikmasidagi *Osman* leksemasi ramziy ma’noda usmoniylarni, demak, turklarni anglatadi. Bundan kelib chiqadiki, mazkur qurilma o‘zbekchada «turkcha ovqatlar», «turk milliy taomlari», «turk milliy taomlari tizimi», «turkcha ovqatlanish nuqtalari» tarzida talqin etiladi. Bu ergonimda metonimiyaning mavjudligi esa uning turklarni obrazli tarzda *Osman* deya ifodalashida kuzatiladi.

Keyingi, 8-, 9-, 10-misollarni metonimik nomlar deb hisoblashimizga sabab, *Shelby, Dior* va *Shanel* ergonimlari shu brendlariga taalluqli mahsulotlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri tarqatuvchi yoxud shu brendlarning do‘konlari emas. Ya’ni *Shelby* – o‘tgan asrning 60-yillarida mashhur bo‘lgan, so‘ng inqirozga yuz tutib, «Ford» kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarishga yana qaytarilgan avtomobil markasi, *Dior* va *Shanel* esa moda olamida tan olingan dunyo brendlaridir. Demak, bu nom bilan atalgan do‘konlar moda olami va atir-upaga ixtisoslashgan nuqtalar bo‘lib, mazkur nomlar har ikki turdagi mahsulotlarga ramziy ishora, «eng sifatli mollar» semantikasiga ega yorliqlardir.

Qolgan: *Jiguli* MCHJ, *AVTECH computers, Daewoo* XK, *Artel* XK, *Samsung* XK ergonimlarini esa bevosita shu nomda ishlab chiqarilgan mahsulot asosida faoliyat yurituvchi (bu do‘kon ham, servis xizmatini ta’minlovchi muassasa bo‘lishi ham mumkin) subyektlarning nomi sifatida baholash lozim. Boshqacha aytganda, bu nomlarda ko‘chimlar tabiatiga monand alohida ajralib turuvchi majoz, obrazli tasvir belgilari mavjud emas. Bu xuddi non bilan savdo qiluvchi do‘konga «Non» deb nom berishga teng holat, bizningcha.

Shunday qilib, metonimik onimizatsiya bilan ergonimlarning manipulyativ va reklama funksiyasining salmog‘i ortganligi sababli ular ma’lum bir tushuncha bilan bog‘liq assotsiatsiyalar tizimini aktuallashtirishni hisobga olgan holda adresatga ta’sir qilish uchun katta imkoniyatlarga ega bo‘ladi.

2. Metaforik onimizatsiya. Insoniyatning olamni bilishida o‘xshatishning o‘rni beqiyosdir. Yangi kuzatilayotgan narsa va hodisa doimo oldin o‘zlashtirgan narsa va hodisaga qiyoslanadi, ular o‘rtasidagi o‘xshashlik oldingi nomning yangi narsa va hodisa uchun ishlatilishiga sabab bo‘ladi. Tilda ilgari mavjud bo‘lgan nomning muayyan o‘xshashlik asosida yangi ma’no uchun qo‘llanishi oddiy nominatsiya vazifasinigina bajarmaydi, balki tinglovchiga ta’sir etish vazifasini ham bajaradi hamda tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. Ana shunday ko‘chim – metaforadir. Metafora (grekcha *metaphora ko‘chirish*) nominatsiya jarayonida muhim o‘rin tutishiga qaramay, shu kunga qadar ko‘proq badiiy vosita sifatida adabiyoshunoslarning diqqatini jalb qilib keldi. Lekin har qanday badiiy ifoda lingvistik vosita yordamida amalga oshiriladi. Shunday ekan, badiiy nutq tarkibidagi ko‘chimlar muayyan lingvistik qonuniyatlar asosida maydonga keladi. Zamonaviy tilshunoslikda metaforaga nutqning bezaklari sifatida emas, balki yangi bilimlarni o‘zlashtirishga hissa qo‘shadigan kognitiv mexanizm sifatida qaraladi.

Kognitiv tilshunoslik doirasida vujudga kelgan va rivojlanayotgan kontseptual metafora nazariyasi metaforologiyaning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘ldi. Zamonaviy kognitiv tilshunoslik metaforani asosiy aqliy operatsiya, dunyoni bilish, tasniflash, baholash va tushuntirish usuli sifatida ko‘rib chiqadi. Inson nafaqat metafora yordamida o‘z fikrini ifodalaydi, balki metafora bilan fikr yuritadi, dunyoni metafora yordamida o‘rganadi, shuningdek, kommunikativ faoliyat jarayonida adresat ongida mavjud bo‘lgan dunyoning lingvistik tasvirini o‘zgartirishga intiladi. Kognitivistlar til va nutqdagi metaforani fikrlash jarayonlarining moddiy aksi sifatida o‘rganadilar.

Metaforik onimizatsiya hodisalarni, harakatlarni va belgilarni bog‘laydi, nominatsiya adresatni ma’lum bir obrazli fikrlash jarayoniga chorlaydi. V.K.Xarchenko metaforik asosda hosil bo‘lgan ergonimlarda asosan ergonimlarning axborot uzatish, hissiy-baholash, va so‘z o‘yinini vujudga keltirish vazifasi faollashadi, deb hisoblaydi[2].

M.G.Kurbanova esa ergonimlarning metaforik usulda berilishida dastlab, nominator ko‘zda tutgan

[1] 1917-yillarda AQSh Michigan shtatida amal qilgan harbiy avtomobillar brendi.

[2] Харченко В. К. Функции метафоры. – Воронеж, 1992. – 88 с.

maqsad, maslak, fikr yoki qarashni implitsit (yashirin) shaklda aks ettirish niyati yotadi, deb ta'kidlaydi[1].

Tahlillar ergonimlarning metaforik usulda voqelanishida ikkita asosiy yondashuv ko'zda tutilishini ko'rsatdi. Bular: 1) **nomga epideyktik yondashuv**. Biz *epideyktik* deb Arastu ajratib ko'rsatgan uch xil ritorik nutq (kengashish nutqi, sud nutqi, epideyktik nutq)ning birini nazarda tutmoqdamiz[2]. Epideyktik nutq, alloma xulosa qilgani kabi, maqtash va aksincha, tanqidga qurilgan nutq. Biroq ergonimlar masalasida maqtash – nominator tomonidan juda sinchkovlik bilan amalga oshirilgan «nutqiy hiyla», ya'ni bu yerda maqtash o'zgalarga nisbatan bo'lmasdan, nominatorning o'ziga qaratiladi. Boshqacha aytganda, nominator o'ziga bog'liq turli jihatlarni (bu o'zi yashab turgan joy yoki sayr etgan manzillar, o'zi ishlab chiqarayotgan mahsulot yoki faoliyat turi, mahorati darajasi, kasbiy aloqadorligi, tashqi ko'rinishi va boshqalar bo'lishi mumkin) go'yo ko'z-ko'z qilish maqsadida nom tanlaydi. Odatda, bu toifa nomlar faqat jarangdorligi bilangina yodda qoladi, aksincha, ulardagi pragmatik ta'sir darajasi u qadar yuqori bo'lmaydi.

2) **istak-maqsadlarning yashirin tarzida nom tanlash (ergonim-implikaturalar)**. Bu dastlab, nominatorning o'z istaklari, orzu-havasini jozibador tarzda yetkazish yoxud uni implikatura – «qog'ozga o'rab» anglatish istagi bilan bog'liq amalga oshadi. Bu usulda implikaturalar ham ko'chma, ham o'z ma'nosida voqelanadi. Natijada sirtdan jarangdor metaforik nomning ichki shaklida yana bir muhim qirra – nominatorning ichki olami, fikriy dunyosiga nazar tashlashga imkon beradigan alohida mazmuniy ko'lam yuzaga chiqadi. Masalan, ko'chma – *Happy Color, Hand In Hand, Lumiere;* o'z ma'noda – *In God We Trustt* – Biz Allohga tavakkal qilganmiz, *Trust In God Every Breath* – Har nafasingizda Allohga tavakkal qiling.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, metaforik onimizatsiya bilan tuzilgan ergonimlarning hammasi, u yoki bu tarzda sotuv obyektlari bilan bog'liq holda shakllanadi. Shahar obyektlarining metaforik ko'chirishga asoslangan nomlari yangilangan ma'lumotlar turiga (korxona profili, ixtisoslashuvi yoki korxonaning jihozlari va interyerining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar) ko'ra tasniflanishi mumkin. Shahar obyektining maqsadini aks ettiruvchi metaforik nomlar eng ko'p sinfni ifodalaydi.

Rezyume. Maqolada hududiy ergonimlarning leksik-semantik tabiati: metaforik va metonimik onimizatsiya haqida bayon qilingan.

Resume. The article describes the lexical-semantic nature of territorial ergonyms: metaphorical and metonymic onymization.

Резюме. В статье рассматривается лексико-семантическая природа территориальных эргонимов: метафорическая и метонимическая онимизация.

[1] Курбанова М. Г. Скрытое и явное в эргонимах российского города // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2013. № 12 (30): в 2-х ч. Ч. I. – С. 121-124.

[2] Античные риторики, 1978, Аристотель. Риторика. I. 3. 1358b, с. 24-25.